



## QADIMGI TURK(KO'KTURK) XALQLARDA BOSHQARUV TAFAKKURINING ASOSIY TAMOYILLARI VA QONUNLARI.

**<sup>1</sup>Bebitov Maqsud Abdirasulovich**

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti  
o'qituvchisi (Denov O'zbekiston) Tel: 998977863300  
e-mail: bebitovmaqsud@gmail.com,

**<sup>2</sup>Qalandarova Madina Jo'rabek qizi**

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Talabasi (Denov O'zbekiston)  
e-mail: qalandarovam05@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7413513>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> November 2022

Accepted: 28<sup>th</sup> November 2022

Online: 30<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

Boshqaruv tizimi, qut va to'ra (urf odat va adolat), layoqat, qurultoy, haqsizlikga qarshilik turish huquqi.

### ABSTRACT

*Insonlar qanchalik rivojlangan va taraqqiy etgan bo'lsin, o'zlarining shaxsiy va ijtimoiy mavjudligini saqlab qolish uchun boshqa odamlarning va boshqa resurslarning yordamiga muhtojdirlar. Shu nuqtai nazardan, muayyan faoliyatni ma'lum usullar bilan boshqa odamlar faoliyati orqali amalga oshirish jarayoni boshqaruv deb ataladi. Boshqaruv jarayoni undan Qutilgan maqsadlarni amalga oshiruvchi ba'zi bir qadriyatlar, ba'zi bir kichik institutlar va an'analardan iborat tizim hisoblanadi. Ijtimoiy yoki tashkiliy darajada yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga hissa qo'shish uchun yaratilgan boshqaruv tizimlaridagi "qadriyatlar", "institutlar" va "an'analalar" ma'lum bir muvozanat va izchilikda bo'lishi Qutiladi. Xusan Ko'kturklar tomonidan yaratilgan boshqaruv tizimi eng muvozanatli va izchil boshqaruv tizim laridan biri sifatida e'tiborga loyiq. Shu ma'noda Go'kturklar boshqaruv tizimi turk xalqlari tomonidan keyingi asrlarda o'rnatilgan boshqaruv mexanizmlariga asos bo'lib xizmat qilgan.*

Ko'kturk bitiklariga ko'ra turk xalqlari boshqaruv tafakkurining to'rtta asosiy tamoyilga asoslangligi ma'lum. Bu tamoyillarning birinchisi, qut va to'ra (urf-odat va adolat) e'tiqodidir, ikkinchidan "donolik", uchinchi, "Qurultoy-Kengesh", to'rtinchisi – "haqsizlikga qarshilik turish" huquqi. Turk xalqlari boshqaruv falsafasiga asos bo'lgan asosiy paradigmalardan birinchisi, boshqaruvchining xalq ustidagi hokimiyatining manbai va qonuniyligini

ta'minlovchi "Qut" e'tiqodiy tushunchasidir. Turk xalqining hukmdori bo'lishga loyiq bo'lgan har bir kishi uchun tangri tomonidan "Qut" berilishi kerak edi. Yani hukmdor tangridan "qut"langaniga ishonchi komil bo'lganda va o'sha hukmdorning tangri taolodan bir "ne'mat" olganini qabul qilganiga ishonch bildirilgandan so'ng hukmdor e'lon qilingan. "Qut" olgan deb hisoblangan hukmdor ma'murlar xalq muammolarini



muvaqqiyatli hal etishi, oqilona boshqaruvi bilan jamiyatni xursand qilishi kerak edi. Qutlug` yoki qutlangan darajada xalqning etiborini qozonmoq ko`kturklarda hukimdorlik falsafasining end ustun tamolillaridan xisoblangan. Chunonchi muvaqqiyatsiz xon "Qut"ini yo`qotgan deb topilgan va uni boshqaruvdan chetlatish uchun chora izlangan. Boshqaruv tizimining eng oliy vazifalarini zimmasiga olgan hukimdorlar tangrining iroda ixtiyori bilan bu lavozimlarga kelganiga va shuning uchun muvaqqiyatga erishganiga ishonishgan<sup>1</sup>.

Turk xalqiga hukmronlik qilish huquqini tangridan "Qut"ni olgan xoqon hukmdor davlatning asosiy tartibini saqlashda foydalanadigan asosiy vosita "To`ra(urf odat, anana)"dir. "To`ra" boshqaruv qonuni va axloqini o`z ichiga olgan boshqaruv tamoyili bo`lib, boshqaruv munosabatlarida har bir kishi rioya qilishi shart bo`lgan "qadriyatlar" yig`indisidir. Ijtimoiy tartibni ta`minlash nuqtai nazaridan "To`ra" deganda ma`murlarning har bir insonga tegishli shaxsiy yoki umumiy huquqlarini himoya qilishga g`amxo`rlik qilishi, barcha qaror va harakatlarini "Adolat" tamoyili doirasida amalga oshirishi tushuniladi. Udum, ana`na va urf odatni buzgan hukmdor o`z qonuniyligini yo`qotgan deb hisoblanadi, keyin esa xalqning "odat"ni buzgan va qonuniyligini yo`qotgan deb topilgan hukmdor boshqaruvga qarshi isyon ko`tarish va qarshilik ko`rsatish huquqi paydo bo`ladi<sup>2</sup>. Turklarda boshqaruv tushinchasining ikkinchi muhim tamoyili shundan iboratki, turklarning boshqaruvchisi bo`ladigan xoqondan boshlab, vakolat va mas`uliyatni o`z zimmasiga olgan har bir darajadagi boshqaruvchi o`z mavqeyi va lavozimi

uchun layoqatli va malakali bo`lishi lozim bo`lgan.

Ko`kturk davlatining barpo etilishi va boshqaruvida katta ro`l o`ynagan Tonyo`quq, boshqaruv tizimida ishtirok etuvchi kishilarning ega bo`lishi kerak bo`lgan fazilatlarni quyidagicha sanab o`tadi: Boshqaruvchi bo`lgan odam aqlli, dono, mard, jangchi, tajribali, o`ziga ishongan, o`sha davrda turklar uchun eng katta raqib hisoblangan xitoy va xitoyliklarni juda yaxshi biladigan shaxs bo`lishi kerak edi<sup>3</sup>.

Turkolog professor Robert Dankof o`z ilmiy tadqiqotlarini olib borish jarayonida XIII asirgacha turk xalqlarilar orasida kuchli mahalliy boshqaruv mavjud ekanligini ilmiy asosli tarzda ishora qildi. Turk millatini ulug`laydigan, millat qudratini mustahkamlovchi, davlat hokimiyatini kengaytiruvchi barcha hukmdorlar donishmandlik sifatiga ega bo`lishi kerak edi<sup>4</sup>. Dono "boshqaruvchilar" bo`lmasa, ijtimoiy ofatlar, tartibsizliklar yuzaga kelishi muqarrardir<sup>5</sup>. Davlatning barpo etilishi, faoliyat yuritishi va yemirilishi bilan bog`liq ko`plab omillar mavjud bo`lsada, asosiy belgilovchi omil hukmdorlarning boshqaruvchilik qobiliyati va layoqatiga bog`liq hisoblangan. Bu borada Qul Tigin va To`nyo`quq bitik toshlarida ham johil, nodon xon va beklar boshchiligidagi boshqaruvida jamiyatlar ko`p falokatlarga duchor bo`layotgani juda jiddiy ogohlantiradilar edi<sup>6</sup>. Ko`kturklar davlatida doimo shxsiy layoqat va qoblyatga katta ahamiyat berilgan. Ko`kturklar tarixida boshqaruvda ma`lum bir hududga vakillik qiladigan kishi qobiliyatiga ega ekanligini isbotlagan kishilarning muhim vazifalar va idoralar boshqaruviga kelishi mumkinligiga ko`plab misollar mavjud. Ko`kturklarda xon yoki



bek vafot etganda, uning o'rnini davlat yoki qabila boshqaruviga qodir bo'lmasa ham faqat xon otasining yoki bek otasining o'g'li bo'lgani uchun uning vorislari haqli deb hisoblanmas edi. Bunday holatda kengash yoki qurultoy deb ataladigan «to'y» yig'ilib, jamiyatni boshqarishga dono va malakaga ega bo'lgan yangi xon yoki bek saylanardi<sup>7</sup>. Masalan, milodiy 581-yilda xitoyliklar Ta-lo-pien deb atagan Go'kturk shahzodasi xon bo'lish navbati kelganda davlat arboblari uni taxtga o'tqazmoqchi bo'lganiga qaramay Ta-lo pien xonlikka sifatida qabul qilinmagan, chunki onasi xitoylik bo'lgan va uning hukmdorlik malakasi xalq tomonidan zaif va noloyiq ko'rilgan<sup>8</sup>. Shundan so'ng, odatga ko'ra, G'okturklar naslidan bo'lgan Tasparning o'g'li Anlokag'an xon sifatida taxtga o'tirgan. Biroq Anlokag'an o'z xonlik mas'uliyatini kutilgandek bajara olmagan va to'liq boshqaruvni qo'lga kirita olmagan uchun davlat majlisi qayta chaqirilib, to'rtta xoqon o'g'llari ichida eng dono, eng jasur va qahramon sifatlarini o'zida jamlaganligi bilan mashxur bo'lgan She-tu qurultoy ittifoqi qarori bilan taxtga chiqarilgan. Xon bo'lgandan keyin She-tu "Il kullug'(qutlug') Shad Bug'a Ishbara xoqon" unvonini oldi<sup>9</sup>. Ishbara xoqon to'rt aka-ukaning eng kattasi bo'lgani uchungina emas, balki barcha qabilalarning ko'nglidan joy olganligi, aka-ukalar orasida eng "dono", eng "aqilli" va eng "yigit(mard)" bo'lgani uchun ham u qurultoy tomonidan xoqon etib saylangan. U barcha qabilalarning ko'nglidan joy oldi, xalqning mehrini qozondi.

Ko'kturk bitik toshlari matnlaridan ma'lum bo'lishicha eski turk xalqlarida boshqaruv tushinchasining uchinchi muhim tamoyili "qurultoy"dir. "Devoni Lug'ti Turk"da "kengesh" deb atalgan bu muassasa muhim davlat va ijtimoiy

muammolar muhokama qilinadigan, muhim masalalar ko'riladigan, maslahat qilinadigan va fikr yuritiladigan muassasaga aylandi. Misol tariqaida ko'turklarning qudratli xoqoni Bilgaxon turk qabilalarinig yirik shaxarlarini hudi Xitoy davlati shaharlari kabi devorlar bilan o'ralishini va buddiizm va daosizm etiqodlarining o'lkada yoyish masalasida byuk burultoy chaqiradi ammobunga qarama qarshi vazir To'nyoquq ushbu etiqodning mamlakat ichkarisida yoyilishi va o'troq hayot tarzi oz sonli turkiy xalqlarning ko'p sonli xitoyliklarga qarshi tura oladigan turklarning shaxsiyatiga va o'zligiga xos jur'at va jasoratlilik, shiddatlilik, qat'iyat, yigitlik kabi ijtimoiy xususiyatlarning yo'qolishi oqibatlaridan qattiq ogohlantirishlari qurultoyda xalq tomonidan katta qo'llab-quvvatlovga erishdi, Bilga xoqonning taklifi rad etildi<sup>11</sup>. Ko'kturk boshqaruv tafakkurining bu noyob majlis qurultoy tatbiqi o'z davridagi hech bir davlat va jamiyatda ko'rilmagan<sup>12</sup>. Ko'kturklarda boshqaruv tushinchasining to'rtinchi asosiy tamoyili shundan iboratki, boshqaruvdagi shaxslar qonuniyligini yo'qotgan deb topilsa, boshqarilivchi xalq qarshilik ko'rsatishga haqli bo'lib qo'zg'olon qilish huquqidan foydalanishgan. Maqom va mansabdagi xoqon, beklar o'z mansab va burchlariga katta darajada munosib shaxslar bo'lib, boshqaruvda aynan shu sababdan joy olgan. Boshqa tomondan, agar rahbar va mansabdor shaxslar ishida, amalda o'z lavozimi va burchini adolatli bajara olmasa, ushbu burch doirasidagi muammolarni hal qila olmasa yoki mansab vakolatlarini suiste'mol qilish orqali o'z manfaatlaridan foydalanishga moyil, xalqqa nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lsa boshqarish uchun noloyiq hamda qonuniyligini



yo'qotgan deb topilgan. Xalqni yomon boshqargan, qatiq qo'llik bilan ish yuritganligi tufayli davlat va jamiyat davomiyligini xavf ostiga qo'ygan hukmdor va xonlarning ushbu xarakteriga qarshi qurultoy chaqirilgan. Qurultoy boshqaruvchilarga nisbatan olgan qarorlarni ham bajarmaganda xalq darhol boshqaruvchilarga nisbatan oyoqqa turishga chog'lanar edi. Bu kabi xolatlarida eski turklarda shunday ota so'zi ishlatilgan "Elmi yomon beyimi yomon" bu kabi maqollar qadimgi turklarda hukmronlik ongining naqadar yuksak bo'lganligini ko'rsatadi. Qolaversa, bu maqol qadimgi turklar orasida hukmronlikning asl manbai xon yoki boshqa hukmdorlarda emas, balki el ya'ni xalqda bo'lganligini ko'rsatadi<sup>13</sup>. Bu kabi yana birqancha o'rnaklarni qadimgi turklar tarixida uchratish mumkin. Ushbu to'rtta asosiy tamoyilning dastlabki uchasi ko'kturk bitik tosh matnlari asosida aniqlangan birinchi qut, to'ra ikkinchi donishmandlik va layoqat, uchinchi qurultoy yani maslahat bular turklarni boshqarish mavqey va maqomda bo'lgan xon va boshqa ma'muriy boshqaruvchilar ega bo'lishi va bilishi kerak bo'lgan va deyarli boshqaruvning ajralmas malaka va shartlaridir. Yuqoridagi uch tamoyilga nisbatan to'rtinchi tamoyil (ya'ni qarshilik ko'rsatish haqqi va qo'zg'olon qilish huquqi) boshqariladigan jamamiyat qatlami sifatida butun turk xalqi ega bo'lishi kerak bo'lgan fazilatlaridir.

Xalq pastdan yuqoriga, oliy hokimiyat ongiga to'g'ridan to'g'ri tasir qilish vositasida o'z boshqaruvchilari ne chog'lik dono, aqilli, salohiyatli ekanligini bilganlar. Boshqaruvchilar ham shu mazmunda ularga xalq ergashayotganliklarini his qilsalar, o'zlari ham yuksak axloqli, donishmand va maslahat bilan ish ko'rish

kabi muhim jihatlarga doimo etibor qilish zarurligini his etib turgan. Shu nuqtai nazardan, "xalqning qarshilik haqqi" va "qo'zg'olon qilish huquqi" turklarda boshqaruv tafakkurining asosiy muvozanat va nazorat mexanizmidir.

## **MUHOKAMA NATIJALARI**

Boshqaruvchi va boshqariluvchi bilishi kerak bo'lgan ustun vazifa va malakaga ega bo'lish har bir tarafning o'z vazifasini to'g'ri bajarishiga bog'liq edi. Shu nuqtai nazardan, boshqaruvga oid ko'kturk yozuvlarida ma'lum bo'lgan eng muhim masalalardan biri xalq, ya'ni boshqariladiganlar haqida nihoyatda real va hayratlanarli tanqidlar qilinganligidir. Bilga xoqon bitik toshlarida birinchi ko'kturk davlatining yemirilishida malakasiz va layoqatsiz boshqaruv xodimlari bilan birga xalqning ham tutumini qattiq tanqid qilib: "Ey turk xalqi, ko'zlaringiz to'lib, g'amginsiz ochlik va to'qlikni o'ylamaysiz magar siz to'q bo'lsangiz, hech qachon ochlik haqida o'ylamaysiz.". "Shunday bo'lganingiz uchun, sen(siz)i boqgan xonlarningning so'zlariga quloq solmay, ularning roziligisiz hamma yoqqa tarqalib, o'sha yerda hamisha halok bo'lib, holsizlanding". "Albatta, qoningiz daryolardek oqdi, suyaklaringiz tog'lardek to'plandi xo'jayin bo'ladigan o'g'lingiz qul bo'ldi xotin bo'ladigan qizingiz kanizak bo'ldi". "Ey turk xalqi, yomon odatindan voz kech, pushymon bo'l!". Shuningdek Bilga xoqon bitik toshlarida turk xalqini xitoyliklar bilan yaqin bo'lish va assimillatsiya oqibatlaridan shunday ogoylantiradi Chin(xitoy)lardan hadiyalar olib judayaqin ittifoq qurib sherik bo'lib ularning tuzog'iga tushib qolish og'ir oqibatidan o'sha davrga nisbatan nihoyatda yuksak siyosiy ong bilan og'ir tanqid qiladi.



## XULOSA

Shunday qilib, ikkinchi ko'kturklar davrida turk xalqlari boshqaruv tafakkuri boshqaruv munosabatlarini nafaqat biryoqlama nuqtai nazardan, balki boshqaruvchi va xalqning birgalikdagi mas'uliyati doirasida baholash orqali zamonaviy boshqaruv va tashkiliy yondashuvlarga katta hissa qo'shgan. O'ziga xos ma'muriy boshqaruv tizimini yarata olgan turk xalqi boshqaruvini shu ikki asosiy tamoyildan kelib chiqib tushuntirish mumkin. Ulardan birinchisi turk xalqlari mulkiy munosabatlarida ma'lum bir kapitalistik sinifning yangi aristokratik tabaqaning yo'qligidir.

Ikkinchisi, boshqaruv jarayoniga ta'sir qiluvchi bir ruhoniylar sinfining yo'qligi. Muvozanatli boshqaruvni o'rnatish yo'lidagi eng katta to'siqlar ko'pincha bu ikki sinfning (boshqaruvchi va boshqariluvchi) boshqaruv mexanizmiga nohaq aralashuvi tufayli yuzaga kelgan. Oxir oqibat, jamiyat yoki davlat boshqariladiganlar tomonidan nazorat qilinmasligi va pastdan yuqoriga ta'sir o'tkazilmasligi rahbarlarda vaqt o'tishi bilan "narsissizm" va "despotizm"ga nisbatan moyilligi ortib borishi muqarrar edi. Natijada esa xalq boshqarilishga loyiq bo'lganidek boshqariladi, yani, ular o'zlari munosib bo'gan tarzda boshqariladi.

## References:

1. Bıçak Ayhan. "Turklik tushinchasi, kelib chiqishi", Dergah nashriyoti: bet- 79, Istanbul (2009 yil).
2. Bıçak Ayhan. "Turklik tushinchasi, kelib chiqishi", Dergah nashriyoti: bet- 82, Istanbul (2009 yil).
3. Bıçak Ayhan. "Turklik tushinchasi, kelib chiqishi", Dergah nashriyoti: bet- 70, Istanbul (2009 yil).
4. Divitchiog'lu Shener, "Ko'k turklarda Qut, kuch va uluk(ulush, umumiy bo'linish, pay)", Ada nashryoti, Istanbul (1987 yil).
5. Basher Sait "Turkiylik va e'tiqod, model haqida", Yangiliklar Akademiya nashryori, Istanbul(2009 yil 19 aprel).
6. Bıçak Ayhan. "Turklik tushinchasi, kelib chiqishi", Dergah nashriyoti: bet- 87, Istanbul (2009 yil)
7. Aydogan Metin "Antik davrdan globallashuv gacha, boshqaruv an'analari va turklar", Resse Nashryoti. I jild, 9- nashir, bet- 523. Istanbul (2013 yil).
8. Aydogan Metin "Antik davrdan globallashuv gacha, boshqaruv an'analari va turklar", Resse Nashryoti. I jild, 9- nashir, bet- 523. Istanbul (2013 yil).
9. Taşağil Ahmet, "Ko 'k turklar" I-II ,III , Turk tarix jamiyati nashryoti IV/AI.I. Seriya soni : 21, Anqara (2012).
10. O'gel Bahaeddin "Turk madaniyatining o'tmishdan hozirgi kungacha rivojlanish davrlari", Turk dunyosi tadqiqot fondi nashrlari: bet- 590-591, Istanbul(1988 yil).
11. Gezgin Ali Galip, "Turk-islom davlatlarida kengash", www.tarihtarih.com/ 12.12.2014 yil.
12. Aydogan Metin "Antik davrdan globallashuv gacha, boshqaruv an'analari va turklar", Resse Nashryoti. I jild, 9- nashir, bet- 521. Istanbul (2013 yil).
13. Ziyo Go'kalp, "Turklik asoslari", Qum soatini nashiyoti, bet- 169, 2001 yil.



14. Bebitov, Maqsud Abdirasulovich, & Mardonov, Muxriddin Islom O'G'Li (2022). QORAXONIYLAR DAVLATIDA TA'LIM FAOLIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 487-491.
15. Bebitov, Maqsud Abdirasulovich (2021). TURKIYA ANTAKIYADAGI O'ZBEKLAR TAKIYASI TARIXI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 1233-1241.